

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-dekabr

RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 48 361,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari 117,2 %ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmi 19439,6 ming.so'mni tashkil etdi.


Ma'lumki, xizmatlar ko'rsatish tizimini yaxshilash va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 43 443,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etdi.

Bozor xizmatlarining salmoqli hajmi savdo xizmatlari (26,4 %), moliyaviy xizmatlar (24,3 %), transport xizmatlari (12,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,2 %), ta'lim sohasi (4,8 %) dagi xizmatlarda kuzatilmoqda.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 49,7 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 71,7% ni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, (2018-yil yanvar—dekabr oylarida, %)




2018 yil yanvar–dekabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 48 361,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,6 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2018 yil yanvar–dekabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	48 361,8	110,6
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	4 956,2	118,6
Moliyaviy xizmatlar	11 732,6	117,2
Transport xizmatlari	6 170,3	111,1
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	3 642,0	102,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 930,2	105,0
Savdo xizmatlari	12 788,3	104,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari	2 178,4	103,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2 309,1	104,4
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	812,0	116,6
Ijara xizmatlari	918,2	105,9
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlari	255,0	107,9
Shaxsiy xizmatlari	615,4	104,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari	1 334,5	123,4
Boshqa xizmatlari	2 361,6	105,5

2017 yil yanvar–dekabr oylariga nisbatan, 2018 yil yanvar–dekabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (123,4 %)da va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,6 %)da qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati
(2018 yil yanvar–dekabr oylarida, %)**




Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,6 %)da, shaxsiy xizmatlar (104,3 %)da va ta'lim sohasidagi xizmatlar (104,4 %)da kuzatildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi (2,9 trln. so'm), savdo xizmatlari (2,5 trln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (1,0 trln. so'm), transport xizmatlari (0,9 trln. so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar, yashash va ovqatlanish xizmatlari, shuningdek me'morchilik sohasidagi xizmatlari (0,4 trln. so'm)da oshishi kuzatilmogda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi

(2018 yil yanvar-dekabr oylarida, mlrd.so'm)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda xizmatlar hajmi nisbatan pastroq o'sish (0,05 trln. so'm) qayd etildi.


Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi
(2018 yil yanvar–dekabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Toshkent shahri	48 361,8	110,6
tumanlar:		
Uchtepa	2 587,9	103,5
Bektemir	1 281,0	108,9
Yunusobod	8 856,0	113,9
Mirzo Ulug'bek	4 871,8	116,4
Mirobod	7 455,7	111,7
Shayxontohur	5 089,2	111,4
Olmazor	2 409,8	105,2
Sergeli	2 994,4	121,0
Yakkasaroy	3 172,4	106,5
Yashnobod	4 716,9	114,7
Chilonzor	4 621,5	108,7
Tumandan tashqarida	305,4	91,3

Tumanlar o'rtaida eng yuqori hajm bilan Yunusobod tumani (8 856,0 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Yunusobod tumani bo'yicha 113,9 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda Toshkent shahrining har bir iqtisodiy tumanining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

Jami xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi (2018 yil yanvar–dekabr oylarida, %)




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni tumanlar o'rtasida Yunusobod (18,3 %), Mirobod (15,4 %), Shayxontohur (10,5 %) va Mirzo Ulug'bek (10,1 %) tumanlari egallaydi.

Tumanlar o'rtasida eng kam ulush Bektemir (2,7 %), Olmazor (5,0 %), Uchtepa (5,4 %) va Sergeli (6,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari Sergeli (121,0 %), Mirzo Ulug'bek (116,4 %), Yashnobod (114,7 %), Yunusobod (113,9 %) kabi tumanlarida qayd etildi.

Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati (2018 yil yanvar-dekabr oylarida , %)



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari Uchtemir (103,5 %), Olmazor (105,2 %), Yakkasaroy (106,5 %) va Chilonzor (108,7 %) kabi tumanlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar—dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 12 788,3 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 26,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 2 520,9 mlrd.so'mga oshdi.

Tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi (2018 yil yanvar—dekabr oylarida , %)



Savdo xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkich Chilonzor (1 896,1 mlrd. so'm), Shayxontohur (1 394,0 mlrd. so'm) va Uchtepa (1 342,3 mlrd. so'm) tumanlarda kuzatildi.

Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkich Sergeli tumanida kuzatildi. Ushbu tumanda, savdo xizmatlari hajmi 114,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlar tarkibi (2018 yil yanvar–dekabr oylarida, %)



Savdo xizmatlari tarkibida ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) katta salmoqqa ega. Uning ulush 48,3 %ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar ulushi 44,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosini bo'yicha xizmatlar umumiyligi savdo xizmatlari hajmida 7,0 % ni egallaydi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar—dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 11 732,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 117,2 % ni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati

(2018 yil yanvar—dekabr oyida, % da)



Moliyaviy xizmatlarning yuqori o'sish sur'atlari Mirobod tumanida (148,3 %) kuzatildi.

Nisbatan past o'sish sur'ati Uchtepa tumanida – 79,5 % qayd etildi.

2018 yilning yanvar—dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning umumiyligi hajmida salmoqli ulushni sug'ortalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar egallaydi. Uning hajmi 10 390,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,5 %ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning tarkibi


(2018 yil yanvar—dekabr oyida)



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida eng yuqori ulushni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (88,6 %) egallaydi.

Harakatchanlik, qulaylik, nisbatan yuqori bo'limgan narxlar avtomobil transportiga uning boshqa turlari o'rtasida uzoq muddat birinchilikni saqlab qolish imkonini beradi. 2018 yil yanvar–dekabr oylarida avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 6 170,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport xizmatlarining umumiyligi hajmida tumanlarning ulushi, (2018 yil yanvar–dekabr oylarida, %)




Avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning umumiyligi hajmida eng past ulush Bektemir (2.9 %), Yakkasaroy (3.5 %), Olmazor (6.4 %) va Uchtepa (6.5 %) tumanlarda qayt etildi.

Eng yuqori ulush Sergeli (25.5 %), Mirobod (13.8 %), Yunusobod (9.3 %), Shayxontohur (8.6 %) va Yashnobod (8.5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologiyali xizmatlarni yanada rivojlantirish, yangi turdag'i xizmatlar ro'yxatini kengaytirish, shuningdek taklif qilingan xizmatlarning sifatini yaxshilash aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi, ya'ni 2018 yil yanvar-dekabr oylarida 18,6 % ni tashkil qildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati

(2018 yil yanvar-dekabr oylarida, %)




Yuqori o'sish sur'atlari Yunusobod (132,0 %), Shayxontohur (129,9 %), Yashnobod (121,1 %) va Chilonzor (117,5 %) tumanlaarda qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan uncha yuqori bo'limgagan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'ati Yakkasaroy (95,0 %), Mirobod (103,8 %) va Sergeli (108,1 %) tumanlarda kuzatildi.


Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 1 930,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish 5,0 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 4,0 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida, %)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 76,1 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 23,9 % ga to'g'ri keladi.

Tumanlar o'rtasida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori va eng past hajmlarini solishtirilishi (2018 yil yanvar-dekabr oylarida, %)




2018 yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Yunusobod tumanida 528,2 mlrd.so'mni tashkil etdi.

Eng past hajm Bektemir tumanida - 14,0 mlrd.so'm qayd etildi.

2018 yil yanvar–dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2 119,9 mlrd. so'mga tashkil etdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 % ga oshdi.

Tumanlar bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati (2018 yil yanvar–dekabr oylarida, %)




Tumanlar orasida eng yuqori ko'rsatkich Chilonzor (109,7 %), Sergeli (108,9 %), Olmazor (108,4 %) va Mirobod (103,5 %) tumanlarida qayd etilgan.

Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Yakkasaroy (99,7 %), Shayxontohur (100,2 %) va Yashnobod (101,0 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 19 439,6 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi.

Tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar (2018 yil yanvar-dekabr oylarida)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirobod tumani – 55 186,6 ming so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 110,3 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Olmazor tumantida – 6 763,4 ming so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil etdi.

Toshkenr shahar

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul:

Yo'idoshev A.S.

(71) 230-88-15